




## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-may)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati %



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2901,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 93,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 49,8 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda 37,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 25,0 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning-10,0 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida-43,0 % ga pasayish kuzatildi.



## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1431,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 49,3 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat






### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 99,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 6,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 34,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,4 %), o'rta-quyi texnologiyali 223,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 15,6 %), quyi texnologiyali 1072,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 75,0 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	15,4	19,8	4,4
Aroq, ming l. 100 % spirt	83639,4	7119,3	-76520,1
Sellyuloza, ming tonna 90 %	620,7	763,7	143
Paxta tolasi, ming tonna	17,2	25,4	8,2
Yigirilgan ip, tonna	1573,0	1073,4	-499,6
Paxta chigiti, ming tonna	26,9	41,3	14,4
Paxta tiviti (lint), ming tonna	1,6	2,4	0,8
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	13,9	16,7	2,8
Etilen polimer qoplar, ming tonna	10,6	6,6	-4,0
Issqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln. kVt/s	6375,6	5421,1	-954,5
Bug' va issiq suv (issqlik energiyasi), ming Gkal	72,9	48,4	-24,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy  
va spelta uni

**19,8**  
ming tonna



Aroq

**7119,3**  
ming l. 100 % spirt




Sellyuloza

**763,7**  
ming tonna 90 %



Paxta chigiti

**41,3**  
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

**2,4**  
ming tonna



Yigirilgan ip

**1073,4**  
tonna





## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta tolasi

**25,4**  
ming tonna



Etilen polimerli qoplar

**6,6**  
ming tonna



Soapstok

**0,6**  
tonna



Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi

**6375,6**  
mln. kVt/s



Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)

**48,4**  
ming Gkal




Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa

**16,7**  
ming tonna



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1443,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 49,8 % ini) tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 25,0 % ga oshganligi kuzatildi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



2020-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 37,0 % ga oshganligi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 924,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga pasayish kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,9 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 56,5 % dan 2020-yilning yanvar-may oylarida 58,4 % ga oshganligi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 1,0 % ni (2019-yil yanvar-may oylarida 1,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 37,4 % ni, shuningdek, Guliston shahri 14,6 % ni, Mirzaobod tumani 9,9 % ni hamda Boyovut tumanida 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (86,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahrida (161,1 %) va Mirzaobod (124,8 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-may oylarida)**


	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>925,4</b>	<b>100,0</b>	<b>86,2</b>
<b>Guliston sh</b>	134,6	14,6	85,0
<b>Shirin sh</b>	8,4	0,9	75,2
<b>Yangiyer sh</b>	54,9	5,9	161,1
<i>tumanlar:</i>			
<b>Boyovut t</b>	78,3	8,5	39,9
<b>Guliston t</b>	27,5	3,0	75,8
<b>Mirzaobod t</b>	91,4	9,9	124,8
<b>Oqoltin t</b>	27,3	3,0	83,6
<b>Sardoba t</b>	26,3	2,8	83,1
<b>Sayxunobod t</b>	74,0	8,0	90,1
<b>Sirdaryo t</b>	345,6	37,4	96,4
<b>Xovos t</b>	56,1	6,1	97,3

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 349,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 12,0 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-may



Xorijiy korxonalar

### 2020-yil yanvar-may




Boshqa korxonalar



**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	<b>2020-yil yanvar-may mlrd. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2901,7</b>	<b>93,4</b>
<b>Guliston sh</b>	<b>311,2</b>	<b>96,3</b>
<b>Shirin sh</b>	<b>1363,7</b>	<b>92,9</b>
<b>Yangiyer sh</b>	<b>180,6</b>	<b>108,4</b>
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut t</b>	<b>110,2</b>	<b>75,0</b>
<b>Guliston t</b>	<b>58,7</b>	<b>116,2</b>
<b>Mirzaobod t</b>	<b>110,9</b>	<b>134,4</b>
<b>Oqoltin t</b>	<b>86,1</b>	<b>91,9</b>
<b>Sardoba t</b>	<b>50,2</b>	<b>80,1</b>
<b>Sayxunobod t</b>	<b>88,5</b>	<b>93,0</b>
<b>Sirdaryo t</b>	<b>475,6</b>	<b>86,0</b>
<b>Xovos t</b>	<b>65,9</b>	<b>101,3</b>

Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 47,0 %), Sirdaryo tumani (16,4 %), Guliston shahri (10,7 %), hamda Yangiyer shahri (6,2 %) Boyovut tumani (3,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Sardoba tumani (1,7 %), Guliston tumanlariga (2,0 %) hamda Xovos tumani (2,3 %) to'g'ri kelmoqda.


**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish**  
(2020-yil yanvar-may oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3461,8</b>	<b>1102,9</b>
Guliston sh	3465,4	1498,8
Shirin sh	73318,1	452,8
Yangiyer sh	4210,1	1279,7
<b>tumanlar:</b>		
Boyovut t	858,8	610,4
Guliston t	820,6	385,0
Mirzaobod t	1534,4	1264,7
Oqoltin t	1672,5	530,7
Sardoba t	768,3	402,3
Sayxunobod t	1157,3	967,1
Sirdaryo t	3748,2	2723,6
Xovos t	696,5	592,7





**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi**  
(2019-yil yanvar-may oyiga nisbatan, % da)




Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi  
(2020-yil yanvar-may oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>886,7</b>	<b>30,6</b>
Guliston sh	158,4	50,9
Shirin sh	11,7	0,9
Yangiyer sh	61,6	34,1
<b>tumanlar:</b>		
Boyovut t	105,5	95,7
Guliston t	25,6	43,6
Mirzaobod t	85,4	77,0
Oqoltin t	20,7	24,0
Sardoba t	31,5	62,7
Sayxunobod t	47,6	53,8
Sirdaryo t	297,5	62,5
Xovos t	41,3	62,8



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 884,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,5 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Guliston shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 78,8 %), Sardoba (66,8 %), Xovos (65,0 %), Yangier sh. (58,8 %) Sirdaryo (57,6 %), Sayxunobod (53,8 %), hamda Guliston (43,7 %), tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Boyovut tumani (35,3 %), Mirzaobod tumani (32,5 %), Oqoltin tumani (26,5 %) hamda Shirin shahrida (0,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 1858 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 496 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,7 %) Guliston shahriga, 307 tasi (16,5 %) Sirdaryo tumaniga, 173 tasi (9,3 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-may oylarida viloyatda 240 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 59,6 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sayxunobod tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (067) 236-86-23